

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/2025.27.12. T.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

MURAYEVA HODISAXON MO‘SINJON QIZI

TASVIR KO‘RINISHIDA BERILGAN O‘SIMLIK BARGLARINING
KASALLIKLARINI TASHXISLASHDA INFORMATIV BELGILARNI
TANLASH ALGORITMLARI

05.01.03 — Informatikaning nazariy asoslari

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Murayeva Hodisaxon Mo'sinjon qizi

Tasvir ko'rinishida berilgan o'simlik barglarining kasalliklarini
tashxislashda informativ belgilarni tanlash algoritmlari..... 3

Мураева Ходисахон Мусинжон кызы

Алгоритмы выбора информативных признаков для диагностики
заболеваний листьев растений, представленных в виде
изображений..... 21

Murayeva Hodisakhon Musinjon qizi

Feature selection algorithms for the diagnosis of plant leaf diseases
from image data. 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/2025.27.12. T.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

MURAYEVA HODISAXON MO‘SINJON QIZI

TASVIR KO‘RINISHIDA BERILGAN O‘SIMLIK BARGLARINING
KASALLIKLARINI TASHXISLASHDA INFORMATIV BELGILARNI
TANLASH ALGORITMLARI

05.01.03 — Informatikaning nazariy asoslari

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5804 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tuit.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xudayberdiyev Mirzaakbar Xaqqulmirzayevich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Primova Xolida Anorboyevna
texnika fanlari doktori, professor

Temerbekova Barno Maratovna
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.09/2025.27.12.T.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "9"-sentabr soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 207-59-42, e-mail: ilmiy_kengash@tuit.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (446 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-15.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "28" -avgust kuni tarqatildi.
(2026-yil "28" -avgustdagi 25-raqamli reestr bayonnomasi).



M.M. Kamilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, texnika fanlari doktori,
professor, O'zFA akademigi

N.A. Egamberdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

N.O. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xalq xo'jaligining barcha sohalarini raqamlashtirish yordamida oziq-ovqat ta'minotini monitoring qilish va o'z vaqtida zarar keltiruvchi omillarni aniqlash dolzarb masalalardan biridir. Aholi sonining keskin ortib borishi, iqlim o'zgarishi, tuproq degradatsiyasi va suv resurslarining cheklanishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishni talab qilmoqda. Biroq o'simliklarga kelayotgan turli kasalliklar ushbu jarayonga jiddiy to'sqinlik qilmoqda. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha o'simlik kasalliklari qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini o'rtacha 20–40 foizgacha kamaytiradi. Ayrim hollarda esa ushbu yo'qotishlar 50 foiz va undan ortiq darajaga yetishi mumkin. Masalan, Birlashgan millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, o'simliklarni zararlovchi kasallik va zararkunandalar har yili dunyo bo'yicha bir qancha iqtisodiy zarar keltirmoqda. Mazkur sharoit dunyo miqyosida o'simlik kasalliklarini erta bosqichda aniqlash va oldini olishga qaratilgan ilmiy izlanishlar qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlash, yuqori hosildorlikka erishish hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va amaliyotga joriy etishni taqozo qilmoqda. Shu jihatdan, o'simlik kasalliklarini tashxislashda tasvirli ma'lumotlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish usullari asosida tasvir sifatini oshirish, obyektни tavsiflovchi xususiyatlarni ajratish, ulardan eng optimallarini tanlashning maxsus algoritmlari majmuasini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyotidan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda raqamli texnologiya va ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish orqali yuqoridagi masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Barg tasvirlarini raqamli shaklga o'tkazish orqali ularning rang, shakl va tekstura xususiyatlarini aniq raqamli ko'rsatkichlarga aylantirish mumkin. Ushbu ko'rsatkichlar asosida mashinali o'qitish va chuqur o'qitish algoritmlari yordamida kasallik belgilari avtomatik tarzda ajratib olinadi va yuqori aniqlikda tashxis qo'yiladi. Ayniqsa, barg ranglaridagi o'zgarishlar ko'plab kasalliklarning dastlabki belgilaridan biri bo'lgani sababli, rang bo'yicha intellektual tahlil o'simlik kasalliklarini erta aniqlashda eng istiqbolli yondashuvlardan hisoblanadi. Bu borada, barg tasvirlaridagi ranglar asosida o'simlik kasalliklarini intellektual usullar yordamida aniqlash algoritmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ham qishloq xo'jaligi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish hamda diagnostika jarayonlarini raqamlashtirishga qaratilgan samarali algoritm va usullarni yaratish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali doirasida sun'iy intellekt asosidagi dasturiy ta'minotdan foydalanish uchun davlat organlari ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlar to'plamlarini olish imkoniyatini taqdim etuvchi raqamli ma'lumotlar platformasi (data.egov.uz) ishga tushirildi. Bu holat mamlakatimizda bir qator sohalarning rivojiga hissa qo'shishi mumkin. Ma'lumotlarga ochiq kirish ilmiy tadqiqotlar, innovatsion loyihalar yaratish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-sonli, 2022-yil 28-yanvarda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevralda qabul qilingan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4996-sonli, 2024-yil 14-oktabrda qabul qilingan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-358-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-dekabrda "Agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 794-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Odatda, tadqiqotning samarali olib borilishida, mazkur tadqiqot bilan bog'liq usul hamda algoritmlarni takomillashtirishda adabiyotlarning o'rganilganlik darajasi katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, hozirgi kungacha timsollarni tanib olishda xususiyatlarni ajratish hamda tanlash sohasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan F.Rosenblatt Perceptron modelini yaratgan, u kiruvchi belgilarni neyron tarmoqqa berish orqali timsollarni avtomatik tasniflashning dastlabki konsepsiyasini ishlab chiqqan. M.A. Aizerman, E.M. Braverman, L.I. Rozonoerlar "Potensial funksiyalar usuli" orqali timsollarni tanib olishda obyektlarni xususiyatlar fazosida ifodalashga asoslangan metodlarni ishlab chiqqan. V.N. Vapnik va A.Ya. Chervonenkis statistika asosidagi o'rganish nazariyasi va SVM metodlarini ishlab chiqib, timsollarni belgilar to'plami orqali tasniflashni ilmiy tomondan asoslagan. N.G.Zagoruyko timsollarni tanib olishda "yaqinlik funksiyasi" va xususiyatlarning informativligini tahlil qilish orqali belgilarga asoslangan qaror qabul qilish algoritmlarini ishlab chiqqan. Bundan tashqari, timsollarni tanib olishda eng katta iz qoldirgan olimlardan biri Yu.I.Juravlyev "Baholarni hisoblash algoritmi" nazariyasini ishlab chiqqan.

Timsollarni aniqlashning ushbu yo'nalishdagi usul va algoritmlarini rivojlantirish ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan mamlakatimiz olimlaridan M.M. Kamilov, Sh.X. Fozilov, A.X. Nishanov, E.M.Aliev, N.Mirzayev, D.T.Muhamadiyeva, N.S.Mamatov, M.X.Xudayberdiyev, A.Sh.Hamroyev va boshqalar salmoqli hissa qo'shganlar.

Mazkur tadqiqot yo'nalishida ko'plab ilmiy ishlar olib borilganligiga qaramasdan, barg tasvirlari asosida o'simliklar kasalliklarini tasniflash masalalarida obyektning mohiyatini to'liq aks ettiruvchi xususiyatlarni aniqlash va optimallarini

tanlab olish, sinflar hamda belgilarning qism to'plamlari o'rtasidagi bog'liqlik munosabatlari to'liq yechilmagan va yetarli darajada mustahkamlanmagan.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № FL-8824063405 "Sun'iy intellekt usullari asosida biotibbiyot signallar va tibbiy tasvirlarga raqamli ishlov berish nazariyasi va algoritmlarini rivojlantirish" (2025-2027) mavzusidagi tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'simliklarning barg tasvirlari haqidagi ma'lumotlar bilan ishlash orqali kasalliklarni tashxislashga xizmat qiladigan informativ belgilar fazosini shakllantiruvchi algoritmlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy qilish.

Tadqiqotning vazifalari:

o'simlik potologiyasini aks ettiruvchi turli sifatda bo'lgan barg tasvirlaridan iborat ma'lumotlar to'plamini yig'ish va dastlabki ishlov berish algoritmlarini tizimli tahlil qilish;

o'simlik bargi tasvirlaridan obyektning tavsiflovchi xususiyatlarni ajratuvchi algoritmlarini maqbullarini tanlash va takomillashtirish;

obyektning tavsiflovchi belgilar to'plamidan informativ belgilarni tanlash algoritmlarini takomillashtirish;

obyektning tavsiflovchi belgilarining tayanch qism to'plamlari bilan sinflar o'rtasidagi bog'liqlik munosabat darajasini baholovchi yondashuvni ishlab chiqish;

taklif qilinayotgan yondashuv va algoritmlar majmuasini amaliyotga yaroqliligini aniqlash uchun tajribaviy sinovlarni o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tasvirlarga raqamli ishlov berish orqali o'quv va nazorat tanlanmalarini shakllantiruvchi usul hamda algoritmlari qaralgan.

Tadqiqotning predmeti. Barg tasvirlari yordamida o'simlik kasalliklarini tashxislashda, tasvirlarga raqamli ishlov berish usullari, diskret matematika, matematik dasturlash, timsollarni aniqlash hamda ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usul va algoritmlari olindi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish, timsollarni aniqlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

o'simlik bargi tasvirlaridan obyektning tavsiflovchi xususiyatlarni ajratishda turli toifali belgilarni ajratuvchi algoritmlar ansambili ishlab chiqilgan;

obyektning xususiyatlarni tavsiflash jarayonida tanib olishga ijobiy hissa qo'shadigan informativ belgilarni tanlash algoritmlari takomillashtirilgan;

qisman pretsedentlik tamoyili asosida belgilarning tayanch qism to'plamlari bilan sinflar orasidagi bog'liqlik munosabatini baholovchi mezon ishlab chiqilgan;

obyektlarning etalonga muvofiqligini baholash uchun bo'sag'aviy qiymatlarni aniqlash yondashuvi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

informativ belgilarni tanlash algoritmlari va yondashuvlari asosida "Pomidor kasalliklarini aniqlash" dasturiy majmuasi ishlab chiqildi. Mazkur dasturiy ta'minot

o'simlik barg tasvirlari orqali ulardagi turli xil patologiyalarni informativ belgilarni aniqlash orqali identifikatsiyalash va tashxislashga mo'ljallangan;

mazkur dasturiy majmua an'anaviy usullarga nisbatan ko'proq moslashuvchan va aniqroq tasniflash imkonini beradi. Shuningdek, chuqur o'qitish algoritmi bilan tanlangan informativ belgilarni birlashtirish orqali tasniflash dasturiy majmuaning samaradorligini ta'minlagan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uslubiy jihatdan masalaning matematik qo'yilishi va uni yechish uchun qo'llanilgan tanib olish usul va algoritmlarining qat'iyligi, yechilgan masalalarning nazariy va amaliy natijalarining muvofiqligi orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati obyektning tavsiflovchi xususiyatlarni ajratib olish algoritmlari majmuasini tashkil qilish, ulardan eng informativlarini tanlab olish algoritmini ishlab chiqish, shuningdek qismani pretsedentlik tamoyillari asosida belgilarning tayanch qism to'plamlarini sinflar bilan munosabatini baholovchi mezonni belgilash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan algoritmi va dasturiy majmuani qishloq xo'jaligi sohasida qo'llash mumkinligidan iborat. Shuningdek, yuqorida aytilgan qismani pretsedentlik tamoyillari asosida belgilarning tayanch qism to'plamlarini tashkil qilish ma'lumotlar yetarli bo'lmagan sharoitda ham tanib olish imkonini berish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tasvir ko'rinishida berilgan o'simlik barglarining kasalliklarini tashxislashda informativ belgilarni tanlash algoritmlari va dasturiy majmua asosida:

Tasvir ko'rinishida berilgan o'simlik barglarining kasalliklarini tashxislashda informativ belgilarni tanlash algoritmlari asosida yaratilgan dasturiy majmua O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi O'simlik karantini va himoyasi agentligining Sirdaryo viloyati boshqarmasida barg tasvirlaridan o'quv tanlanma shakllantirish, tanlangan informativ belgilar asosida o'simlik barglariga tushadigan kasalliklarni tashxislash aniqligini oshirish vositasi sifatida qo'llanilmoqda (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 5-sentabrdagi 05/06-04-527-son ma'lumotnomasi). Mazkur dasturiy majmua qishloq xo'jaligi xodimlarining tashxislash samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati Buvayda tumani qishloq xo'jaligi bo'limida barg tasvirlari ma'lumotlarini qayta ishlash, informativ belgilar asosida tashxislash aniqligini oshirish vositasi sifatida amaliy foydalanishga topshirildi (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 5-sentabrdagi 05/06-04-527-son ma'lumotnomasi). Pirovardida, tadqiqot natijalari yanada aniqroq tahlil qilina boshlandi, mavjud an'anaviy yondashuvlarga qaraganda sezilarli afzalliklar kuzatildi.

Dasturiy majmua Sirdaryo viloyati Xovos tumani "Zamon teks klaster" MChJ da barg tasvirlari ma'lumotlarini qayta ishlash, informativ belgilar asosida tashxislash aniqligini oshirish vositasi sifatida joriy qilingan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 5-sentabrdagi 05/06-04-527-son ma'lumotnomasi). Dasturiy

majmuadan barg tasvirlari ma'lumotlari asosida olingan ko'rsatkichlarga tayanib, tashxis qilish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish yo'lga qo'yildi. Mazkur dasturiy majmua o'simlik kasalliklariga tashxis qo'yish samaradorligini 10% ga oshirish imkonini berdi.

Dasturiy majmua O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi O'simliklar karantini va himoyasi agentligining Jizzax viloyati boshqarmasida mazkur dasturiy mahsulot sinovdan o'tkazilgan va bir qator samaradorliklar qo'lga kiritilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 5-sentabrdagi 05/06-04-527-son ma'lumotnomasi). Natijada o'simlik barglaridagi kasalliklarni aniqlash vaqti mavjud usullarga nisbatan 15% ga qisqardi hamda aniqlashdagi xatoliklar kamaydi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan ikkita xorijiy va 6 tasi respublika jurnallarida e'lon qilingan. Shuningdek, 2 ta EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalarini qayd etish bo'yicha guvohnomalar olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 100 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'simlik kasalliklarini barg tasvirlari orqali tahlil qilish yondashuvlarining hozirgi holati”** deb nomlangan birinchi bobida tasvirlarning turli sharoitlarda olinishi, tasvirlash turlari, tasvirlarga dastlabki ishlov berish usul va texnikalari, o'simliklarning kasallanish sabablari hamda tasvirlarni tanib olishda qo'llaniladigan usul va algoritmlar haqida batafsil ma'lumot keltirilgan.

Mazkur bobning 1.1-bo'limida o'simlik kasalliklarini identifikatsiya qilishda barg tasvirlarining qanday sharoitlarda olinishi tadqiq qilindi. Jumladan, tasvirlarning olinishida kerak bo'ladigan omillar o'rganildi. Xususan, kameralarning ahamiyati hamda turlarining kasalliklarni tashxislashdagi o'rni tahlil qilindi.

Ushbu bobni 1.2-bo'limida tasvirlarga dastlabki ishlov berish usul va algoritmlari hamda obyektни tavsiflovchi xususiyatlarni ajratishda ushbu usul va algoritmlarining ahamiyati haqida so'z boradi. Tasvirlarga dastlabki ishlov berish jarayoni obyektни tavsiflovchi xususiyatlarni aniqlashda asosiy metodologik

bosqichlardan biri bo‘lib, keyingi tahlil jarayonlarining ishonchliligi va aniqligini bevosita belgilaydi. Ushbu bosqichda amalga oshiriladigan filtratsiya, kontrastni yaxshilash, fonni ajratish, normallashtirish kabi transformatsiyalar tasvirdagi shovqinlarni kamaytirish, struktura va tekstura elementlarini aniqlashtirish hamda rang parametrlarini barqarorlashtirish imkonini beradi. Bu esa nafaqat obyektning aniqligini oshirish, noto‘g‘ri baholashlar ehtimolini kamaytirish va modelning umumlashma qobiliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Mazkur bobning 1.3-bo‘limida o‘simliklardagi turli kasalliklarni aniqlashda ahamiyat kasb etadigan tasvir turlari tahlil qilindi. Dastlab an‘anaviy usullar (RGB) so‘ngra ilg‘or tasvirlash texnologiyalari (Giperspektral, termal va h.k) ko‘rib chiqildi. Hamda mazkur texnologiyalarning kasalliklarni aniqlashdagi o‘rni ko‘rsatib berildi.

Dissertatsiyaning **“O‘simlik tasvirlaridan rang deskriptorlarni ajratish va tayanch xususiyatlarni tanlash algoritmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida obyektning tavsiflovchi xususiyatlarini ajratib olish va belgilar fazosini tashkil qiluvchi algoritmlar taqdim etildi. Shuningdek, model aniqligi va tezkorligini hisobga olishda asl xususiyatlardan faqat informativlarini tanlab olish muhim hisoblanganligi uchun informativ belgilarni tanlab olish usullari o‘rganildi va tahlil qilindi. Xususiyatlarni tanlash bosqichida bir nechta statistik va selektiv yondashuvlar bayon qilindi. Mazkur bobning 2.1-bo‘limida obyektning tavsiflovchi xususiyatlarni ajratuvchi mavjud algoritmlar keltirilgan. Ilmiy tadqiqot ishida o‘simlik barg tasvirlaridagi rang, tekstura, shakl va statistik xususiyatlarni ajratib olishda har bir toifadagi xususiyatlarni belgilab olish uchun algoritmlar majmuasi tashkil qilindi.

Statistik xususiyatlarni ajratish algoritmlari obyektning tavsiflovchi sonli ko‘rsatkichlarni statistik qonuniyatlar asosida hisoblab olish usullari hisoblanadi. U tasvirdagi piksel qiymatlarining taqsimoti, tarqalishi va bog‘liqligini ifodalaydi. Mazkur xususiyatlarni ajratish algoritmlari quyidagi ifodalarda keltirilgan:

1. *O‘rtacha*. Tasvirdagi o‘rtacha rang qiymatini ifodalaydi.

$$M_t = \sum_{u=1}^N \frac{1}{N} I_{t,u}, \quad (1)$$

bu yerda I_{tu} - t -rangli kanalning u -chi pikselining intensivlik qiymati, N piksel soni

2. *Standart og‘ish*. Rang taqsimoti dispersiyasining kvadrat ildizini ifodalaydi:

$$SD_t = \sqrt{\frac{1}{N} \sum_{u=1}^N (I_{t,u} - M_t)^2}. \quad (2)$$

3. *Simmetriya*. Rang taqsimotidagi assimetriya darajasini ifodalaydi:

$$SK_t = \sqrt[3]{\frac{1}{N} \sum_{u=1}^N (I_{t,u} - M_t)^3}. \quad (3)$$

4. *Cho‘qqilik*. Rang taqsimoti shaklini ifodalaydi:

$$K_t = \sqrt[4]{\frac{1}{N} \sum_{u=1}^N (I_{t,u} - M_t)^4}. \quad (4)$$

5. *Yashil rangning ortiqcha indeksi (ExG)*. Yashil rang ustunligini aniqlash uchun ishlatiladigan indeks:

$$ExG = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N (2I_{G,u} - I_{R,u} - I_{B,u}), \quad (5)$$

bu yerda: ExG_j – j -obyekt (tasvir) uchun ortiqcha yashil indeks qiymati, N — j -obyektdagi piksel soni, $I_{G,u}; I_{R,u}; I_{B,u}$ — lar mos ravishda yashil, qizil, ko‘k kanallardagi u -piksel intensivlik qiymatlari.

6. *Qizil rangning ortiqcha indeksi (ExR)*. Qizil rang ustunligini aniqlash uchun ishlatiladigan indeks:

$$ExR = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N \frac{1.4I_{R,u} - I_{G,u}}{I_{G,u} + I_{R,u} + I_{B,u}}. \quad (6)$$

7. *Yashillik indeksi (GLI)*. Barg tasvirlaridagi yashillik indeksi

$$GLI = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N \frac{(2I_{G,u} - I_{R,u} - I_{B,u})}{(2I_{G,u} + I_{R,u} + I_{B,u})}. \quad (7)$$

8. *Qizil-Yashil nisbat, Ko ‘k-Yashil nisbat, Qizil-Ko ‘k nisbat*. Barg tasvirlaridagi rang nisbatlari

$$RGR = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N \frac{I_{R,u}}{I_{G,u} + \varepsilon}, \quad (8)$$

$$BGR = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N \frac{I_{B,u}}{I_{G,u} + \varepsilon}, \quad (9)$$

$$RBR = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N \frac{I_{R,u}}{I_{B,u} + \varepsilon}, \quad (10)$$

bu yerda ε — nolga bo‘lishdan saqlanish uchun kichik qiymat ($\varepsilon = 10^{-8}$).

Tekstura xususiyatlarini hisoblash - bu tasvirda piksel intensivliklarining fazoviy joylashuvi, takrorlanishi va tuzilmasini tavsiflovchi belgilar bo‘lib, obyekt sirtining silliqqligi, dag‘alligi, donadorligi, tartiblilik kabi xossalarni ifodalaydi.

GLCM xususiyatlari (tekstura). s_j - j -tasvir obyekti bo‘lsa, u holda uning i-xususiyatlari (kontrast, energiya va h.k) GLCM matritsasi $P_j(I_{t,u}, I_{t,v})$ orqali hisoblanadi, bu yerda $I_{t,u}$ va $I_{t,v}$ lar qo‘shni piksellar intensivliklari.

Kontrasti. Tasvirdagi turli piksellar yorqinligi (intensivligi) qanchalik farq qilish darajasini ifodalovchi o‘lchovdir. Agar kontrast yuqori bo‘lsa, bu piksellar intensivligida katta farqlar borligini anglatadi, aksincha, kontrast past bo‘lsa, piksellar intensivligi kam farq qiladi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$f_i = \frac{1}{3} \sum_{t=1}^3 \sum_{I_{t,u}=0}^{L-1} \sum_{I_{t,v}=0}^{L-1} (I_{t,u} - I_{t,v})^2 P_{j,t}^\theta(I_{t,u}, I_{t,v}). \quad (11)$$

Korrelyatsiyasi. Ikki piksel o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini ifodalovchi o‘lchovdir. Agar korrelyatsiya yuqori bo‘lsa, bu ikki piksel o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini anglatadi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$f_i = \frac{1}{3} \sum_{t=1}^3 \frac{\sum_{I_{t,u}=0}^{L-1} \sum_{I_{t,v}=0}^{L-1} (I_{t,u} - \mu_{t,u})(I_{t,v} - \mu_{t,v}) P_{j,t}(I_{t,u}, I_{t,v})}{\sigma_{t,u} \sigma_{t,v}}, \quad (12)$$

bu yerda: $\mu_{t,u}, \mu_{t,v}$ — t -kanal bo‘yicha o‘rtacha intensivlik qiymatlari, $\sigma_{t,u}, \sigma_{t,v}$ — dispersiyalar.

Energiyasi. GLCM (Kulrang darajalar hamkorlik matritsasi) elementlarining bir xillik darajasini ifodalaydigan o'lchovdir. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$f_i = \frac{1}{3} \sum_{t=1}^3 \sqrt{\sum_{I_{t,u}=0}^{L-1} \sum_{I_{t,v}=0}^{L-1} P_{j,t}(I_{t,u}, I_{t,v})^2}. \quad (13)$$

Gomogenlik. GLCM matritsasidagi elementlar diagonalni atrofida qanchalik yaqin joylashganligini ifodalovchi o'lchovdir. Agar yuqori qiymatga ega elementlar diagonalga yaqin joylashgan bo'lsa, homogenlik qiymati ham yuqori bo'ladi. U quyidagi formula yordamida o'lchanadi:

$$f_i = \frac{1}{3} \sum_{t=1}^3 \sum_{I_{t,u}=0}^{L-1} \sum_{I_{t,v}=0}^{L-1} \frac{P_{j,t}(I_{t,u}, I_{t,v})}{1 + (I_{t,u} - I_{t,v})^2}. \quad (14)$$


Mazkur bobning 2.2-bo'limida belgilarning muhimligi va ularni informativ sifatida tanlovchi usullar bayon etilgan. Jumladan, Chi-kvadrat testi va ANOVA yordamida belgilar bilan klasslar o'rtasidagi statistik bog'liqlik tahlil qilindi. Bundan tashqari, LASSO regressiyasi asosida penalizatsiya orqali kam informativ belgilar chetga chiqarib yuboriladi. Shuningdek, ketma-ket belgi tanlash (SFS) algoritmi orqali turli xususiyat kombinatsiyalari baholanib, optimal to'plam tanlab olindi. 2.3-bo'limda esa mashinali o'qitish hamda chuqur o'qitish algoritmlari tahlil qilindi. Xususan, tayanch vektor mashina (SVM) va k-eng yaqin qo'shnilar (kNN) usullari samarali vosita sifatida keng qo'llaniladi. SVM modeli o'quv tanlanmani optimal tarzda ajratadigan gipertekislikni topish orqali chiziqli va chiziqli bo'lmagan ajratuvchi sirtlarni qurishga imkon beradi. Bu usul kichik va o'rta hajmdagi ma'lumotlar uchun yuqori aniqlik ko'rsatadi. Biroq katta hajmli tanlanmalar uchun o'qitish jarayoni sekinlashadi. Shu bilan birga nafaqat mashinali o'qitish, balki chuqur o'qitish algoritmlaridan foydalanish ham tasvirdagi murakkab timsollarni tanib olishdagi ahamiyati keltirildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Obyektni tavsiflovchi xususiyatlarni ajratish va informativ belgilarni tanlash”** deb nomlanib, unda obyekt belgilarini ajratish va tanlash masalalari ko'rib chiqilgan. Bunda belgilarni aniqlash asosan ansambl algoritmlaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Dastlab, yuqorida keltirilgan matematik modellar asosida belgilarning sonli qiymatlari hisoblab chiqiladi. Buning uchun turli toifadagi belgilarni ajratib olish algoritmlaridan tashkil topgan ansambl shakllantiriladi. Ushbu jarayon 1-rasmda tasvirlangan. Mazkur bosqichda xususiyatlarni ajratish algoritmlaridan foydalanib obyekt belgilarini ajratib olish jarayonining ketma-ket bosqichlari keltirilgan. Keyingi bosqichda ajratib olingan xususiyatlar asosida optimal belgilarni tanlashning takomillashtirilgan algoritmlari bayon etiladi. Shuningdek, tasniflash jarayonida turli mashinali o'qitish algoritmlarini qo'llash natijalari jadval ko'rinishida keltirilgan.

Barg tasvirlaridan obyekt belgilarini ajratib olish. Obyekt belgilarini ajratib olish bir nechta mustaqil parametrlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Har bir belgi alohida matematik yoki statistik amallar majmuasini talab qiladi. Agar belgilar obyektning mohiyatini to'liq aks ettirsa, tasniflash jarayoni ishonchli amalga oshiriladi. Tasvirga olish jarayonida turli kamera sozlamalari va yoritilish

darajalarining belgilar qiymatlariga ta'sirini hisobga olgan holda, belgilarni ajratib olish uchun turli toifadagi belgilarni ajratuvchi algoritmlar ansambli ishlab chiqilgan. Mazkur algoritmning blok-sxemasini 1-rasmda keltirilgan.

Yuqorida tavsiflangan muammoni hal qilish maqsadida algoritmlar ansambli obyektning rang, statistik, tekstura va shakl xususiyatlarini yagona vektor fazosiga birlashtiradi. GLCM va shakl deskriptorlaridan foydalanish esa modelning tashqi shovqinlar hamda yoritilish sharoitlarining o'zgarishiga sezgirlikni kamaytirish imkonini beradi. Natijada o'simlik barglarining zararlanishlarini keyingi tasniflash jarayonida yuqori aniqlik va barqarorlikni ta'minlovchi informativ belgilar to'plami shakllantiriladi.



1-rasm. Raqamli tasvirlardan o'quv tanlanmani shakllantirish jarayoni

Obyektni tavsiflovchi xususiyatlardan informativ belgilarni tanlash masalasining qo'yilishi.

Informativ belgilarni tanlash masalasini qo'yilishida quyidagilar berilgan bo'lsin :

obyektlar: $S = \{s_1, s_2, \dots, m\}$ m ta obyekt va har bir obyekt uchun n ta xususiyat mavjud;

har bir obyektning barcha xususiyatlari: $s_j = \{x_{1j}, x_{2j}, \dots, x_{nj}\}$;

obyektlarning sinflari: $y_j \in K = \{K_1, K_2, \dots, K_l\}$;

o'quv tanlanma: $T_{mnl} = \{(s_j, y_j)\}_{j=1}^m$;

tanlanadigan belgilar to'plami: $X^* \subseteq X, |X^*| = m \ll n$.

Informativ belgilarni tanlash quyidagi mezonlar asosida bajariladi:

1. Har bir x_i belgining K sinfga bog'liqlik darajasi bo'yicha informativ belgilarni tanlash.

2. Modelning tanib olish aniqligi bo'yicha informativ belgilarni tanlash.

$$X^* = \{x_i^* : U(x_i^*) \geq \delta \cup \arg \max_{X^* \subseteq X} F1(M)\}, \quad (15)$$

bu yerda U –statistik informativlik mezon, δ – informativlik chegarasi,

$F1(M)$ – modellash asosidagi mezon, X^* – yakuniy informativ belgilar to'plami.

Informativ belgilarni aniqlash uchun taklif qilingan takomillashgan yondashuv

1. Takomillashtirilgan Chi-kvadrat testi algoritmi

1-qadam . Gipotezani belgilash:

H_0 nol gipoteza, sinflar va belgilar o'rtasida bog'liqlik yo'q;

H_1 - muqobil gipoteza, sinflar va belgilar o'rtasida bog'liqlik mavjud .

2-qadam. Kontingensiya jadvalini tuzish: sinflar va belgilarning chastotalar sonini ko'rsatuvchi jadval tuzish hamda har bir (i, j) katak uchun O_{ij} - kuzatilganlar sonini kiritish.

3-Qadam. Har bir (i, j) katak uchun quyidagicha E_{ij} -baholanganlar sonini hisoblash:

$$E_{ij} = \frac{\sum_{i=1}^N O_{ij} \times \sum_{j=1}^M O_{ij}}{\sum_{i=1}^N \sum_{j=1}^M O_{ij}}, \quad (16)$$

bu yerda N -satrlar soni, M -ustunlar soni.

4-qadam. φ statistikasini hisoblash:

$$\varphi = \sum_{i=1}^N \sum_{j=1}^M \frac{(O_{ij} - E_{ij})^2}{E_{ij}}. \quad (17)$$

5-qadam. Bog'liqlik darajasini hisoblash:

$$\delta = \sqrt{\frac{\varphi}{\sum_{i=1}^N \sum_{j=1}^M O \times \min(N-1, M-1)}}. \quad (18)$$

6-qadam. Tanqidiy qiymatni aniqlash:

$$df = (N - 1) \times (M - 1), \quad (19)$$

$\varphi_{kr} = \varphi$ jadvalidan olingan tanqidiy qiymat (α, df) uchun

7-qadam. φ statistikani tanqidiy qiymat bilan solishtirish:

Agar- $\varphi > \varphi_{kr}$ bo'lsa:

H_0 rad etiladi (sinflar va belgilar bog'liq)

Aks holda:

H_0 rad etilmaydi (sinflar va belgilar mustaqil)

8- qadam. Natijalarni talqin qilish (Bog‘liqlik darajasi bilan):

Agar H_0 rad etilgan bo‘lsa:

- $0.0 < \delta \leq 0.1$: Ahamiyatsiz bog‘liqlik,
- $0.1 < \delta \leq 0.35$: Kuchsiz bog‘liqlik,
- $0.35 < \delta \leq 0.5$: O‘rta darajada kuchli bog‘liqlik,
- $\delta > 0.5$: Juda kuchli bog‘liqlik.

9-qadam. Natijaviy informativ X^* belgilar to‘plami:

$$X^* = \{x_1^*, x_2^*, \dots, x_{10}^*\}. \quad (20)$$

Taklif etilgan belgilarni ketma-ket tanlash algoritmi bilan takomillashgan

Chi-kvadrat testi algoritmini birlashtirish algoritmi

1-qadam. Takomillashgan chi-kvadrat testi orqali olingan saralangan xususiyatlar to‘plamini tayyorlash.

$$X^* = \{x_1^*, x_2^*, \dots, x_{10}^*\}. \quad (21)$$

2- qadam. Ketma-ket belgi tanlash algoritmi.

a) Boshlang‘ich holatni aniqlash:

$$X_0 = \emptyset. \quad (22)$$

$$k = 0. \quad (23)$$

Algoritm bo‘sh to‘plamdan boshlanadi, ya’ni $k = 0$ ga teng, hech qanday xususiyat yo‘q.

b) Eng yaxshi belgini tanlab qo‘shish:

$$X^+ = \operatorname{argmax} J(X_k + x), \quad (24)$$

bu yerda $x \in Y - X_k$, $J()$ - baholash funksiyasi, X_k -hozirgacha tanlangan xususiyatlar, $Y - X_k$ - hali tanlanmagan xususiyatlar.

$$\begin{aligned} X_{k+1} &= X_k + X^+. \\ k &= k + 1. \end{aligned} \quad (25)$$

Ushbu bosqichda mavjud xususiyatlar to‘plamiga (X_k) yana bir qo‘shimcha xususiyat(X^+) qo‘shiladi.

X^+ – bu tanlov mezonini (criterion function) eng yuqori qiymatga olib keladigan xususiyat, ya’ni X_k to‘plamiga qo‘shilganida klassifikatorning ishlashini eng yaxshilaydigan xususiyat.

Ushbu jarayon to‘xtatish sharti bajarilguncha takrorlanadi.

To‘xtatish sharti: $k = p$

3-qadam. Tanlangan belgilar to‘plami X_k ni qaytarish

4-qadam. Kategoriyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik bilan ketma-ket belgi tanlash dan olingan xususiyatlarni birlashtirish

$$\tilde{X} = X^* \cup X. \quad (26)$$

5-qadam. Yakuniy $\tilde{X}$ to‘plam.

Obyektlarning etalonga muvofiqligini baholash uchun chegaraviy qiymatlarni aniqlash yondashuvi

Dissertatsiya ishida birinchi marta o‘simlik barglarining kasalliklarini tashxislashda informativ belgilarni tanlash uchun epsilon parametrining matematik formulasi ishlab chiqildi. Taklif etilgan formula eng kichik kvadratlar usuli, dispersiya tahlili va sinflar orasidagi masofani hisobga oluvchi kompleks matematik yondashuvga asoslanadi.

Epsilon parametrining matematik ifodasi quyidagi to‘liq formulada berilgan:

1-qadam. Har bir sinf uchun dispersiya va masofa parametrlari hisoblanadi:

σ_K - K -sinf dispersiyasi.

$\frac{1}{D_K}$ - K -sinfnig boshqa sinflarga o‘rtacha masofasi.

$F_K = maqsad_K = 1 - F1_K$.

2-qadam. Gipertekislik(model) ifodasi quriladi:

$$\overline{F_K} = \alpha \times \sigma_K + \frac{\beta}{D_K}. \quad (27)$$

3-qadam. Xatolarni aniqlash. Residual xatolik hisoblanadi:

$$e_K = (1 - F1_K) - \overline{F_K} = (1 - F1_K) - \left(\alpha \times \sigma_K + \frac{\beta}{D_K} \right). \quad (28)$$

4-qadam. Kvadrat xatolar yig‘indisi topiladi:

$$J(\alpha, \beta) = \sum_{K=1}^{10} \left((1 - F1_K) - \left(\alpha \times \sigma_K + \frac{\beta}{D_K} \right) \right)^2. \quad (29)$$

5-qadam Minimallashtirish bajariladi. α va β shunday topilsinki $J(\alpha, \beta)$ minimal bo‘lsin:

$$J(\alpha, \beta) = \sum_{K=1}^{10} \left((1 - F1_K) - \left(\alpha \times \sigma_K + \frac{\beta}{D_K} \right) \right)^2 \rightarrow \min, \quad (30)$$

$$\begin{cases} \alpha \sum_{K=1}^{10} \sigma_K^2 + \beta \sum_{K=1}^{10} \frac{\sigma_K}{D_K} = \sum_{K=1}^{10} (1 - F_K) \sigma_K \\ \alpha \sum_{K=1}^{10} \frac{\sigma_K}{D_K} + \beta \sum_{K=1}^{10} \frac{1}{D_K^2} = \sum_{K=1}^{10} \frac{1 - F_K}{D_K}. \end{cases} \quad (31)$$

Tenglamalar sistemasi hosil qilinadi va α va β lar topiladi.

6-qadam. Topilgan α va β yordamida har bir sinf uchun epsilon qiymat hisoblaniladi. Natijalar 5-jadvalda berib o‘tilgan.

$$\varepsilon_K = \alpha \times \sigma_K + \frac{\beta}{D_K}. \quad (32)$$

Dissertatsiyaning “**Modelni o‘qitish, sinovdan o‘tkazish va baholash**” deb nomlangan to‘rtinchi bobi amaliy tajribaga asoslangan bo‘lib, bir qator ilmiy natijalar tahlil qilingan. Mazkur bobda avvalgi bo‘limlarda taklif etilgan algoritmlarga asoslanib tanlangan informativ belgilarning boshqa mavjud algoritmlar bilan qiyosiy tahlillari o‘tkazilgan bo‘lib, bundan tashqari qisman pretsedentlikka asoslangan tayanch qism to‘plamlarning berilgan sinflarga munosabat darajalari ham jadval ko‘rinishida keltirib o‘tilgan. Turli xil usullar hamda taklif qilingan takomillashtirilgan algoritmlar yordamida tanlangan informativ

belgilar asosida ularni baholash amalga oshirilgan. Mazkur baholash1-jadvalda ko'rsatilgan:

1-jadval.

Informativ belgilarni tanlash algoritmlarini baholash

№	Baholash	Belgilarning umumiy soni	Informativ belgilar soni	Tanib olish aniqligini baholash	Redundantlikni baholashning oʻrtacha koʻrsatkichi
	Metodlar				
1	Chi-kvadrat testi	29	16	85%	0.8
2	Takomillashgan Chi-kvadrat testi	29	10	85%	0.6
3	Mutual information	29	14	83%	0.7
4	ANOVA	29	9	76%	0.6
5	LASSO	29	12	85%	0.8
6	Taklif etilgan algoritm	29	15	88%	0.5

Qismaniy pretseidentlik tamoyili asosida tanlangan informativ belgilarning tayanch qism to'plamlari hosil qilindi. Hosil qilingan qism to'plamlarning sinflarga bo'lgan munosabatini baholovchi mezon ishlab chiqildi. Mazkur natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

1. Optimal belgilar sonini aniqlash.

Barcha tayanch qism to'plamlar uchun maksimal sifat ko'rsatkichini hisoblash:

$$MF_1 = \max_{\tilde{\omega} \in \Omega} F_1(\tilde{\omega}), \tilde{\omega} \in \Omega, \quad (33)$$

bu yerda, $F_1(\tilde{\omega})$ –har bir kombinatsiya uchun sifat ko'rsatkichi.

Optimal belgilar kombinatsiyasini hisoblash:

$$\tilde{\omega}^* = \underset{\tilde{\omega} \in \Omega}{\operatorname{argmin}} |k|, \text{ agar } F_1(\tilde{\omega}) \geq \lambda \times MF_1. \quad (34)$$

2-jadval.

Informativ belgilarning tayanch qism to'plamlarining berilgan sinflarga munosabatini baholovchi mezonlar(minimal xususiyatlar soni)

№	Sinflar	MF1	$\Omega_K > \lambda$	$\tilde{\omega}_\theta$	Belgilarning qism to'plamlari
1	Tomato Leaf Mold	85.9%	81.7	6	'Skew_B', 'R/G', 'ExG_mean', 'ExG_std', 'ExR_mean', 'ExR_std'
2	Tomato Bacterial Spot	85.1%	80.8	5	'ExG_mean', 'ExG_std', 'ExR_mean', 'ExR_std', 'Std_R'
3	Tomato_target_spot	74.2%	70.5	6	Std_G', 'GLI', 'R/G', 'ExG_std', 'ExR_mean', 'ExR_std'
4	Tomato-Sept_Leaf_Spot	84.9%	80.6	6	'Mean_R', 'Std_G', 'ExG_mean', 'ExG_std', 'ExR_mean', 'ExR_std'

5	Tomato_healthy	93.6%	88.9	3	'Std_R', 'ExR_std', 'GLCM_contrast1'
6	Tomato_Yellow_Leaf_Curl_Virus	84.8%	80.5	5	'Mean_R', 'Mean_B', 'Std_B', 'R/G', 'G/B'
7	Tomato_Two-spotted_spider_mite	74.7%	70.9	6	'Mean_R', 'Skew_B', 'R/G', 'ExG_mean', 'ExR_mean', 'ExR_std'
8	Tomato_Early_Blight	72.5%	68.9	6	'Mean_R', 'ExG_mean', 'ExG_std', 'ExR_mean', 'ExR_std', 'Std_R'
9	Tomato_Mosaic_Virus	96.9%	92.1	3	'GLI', 'ExG_mean', 'ExG_std'
10	Tomato_Late_blight	74.9%	71.2		'ExG_mean', 'ExG_std', 'ExR_mean', 'ExR_std', 'Std_R'

Har bir sinfda maksimal $F1$ ko'rsatkichga erishish uchun kerakli minimal belgilar soni aniqlandi. Tahlil natijalariga ko'ra, barcha sinflarda turlicha belgilar kombinatsiyalar orqali $F1 \geq \lambda \times MF1$ natijaga erishildi.

2. Belgilarning sinflar kesimida muhimlik darajasi.

$$Im(K, \tilde{\omega}_{x_i}) = \frac{\sum_{\tilde{\omega}_{x_i} \in \Omega_K} F1(\Omega_K)}{|\Omega|} \quad (35)$$

bu yerda: K -sinf, $\tilde{\omega}_{x_i}$ – qism to'plam ichidagi belgi, Ω - belgini o'z ichiga olgan barcha kombinatsiyalar to'plami.

3-jadval.

Belgilarning $\tilde{\omega}$ sinflar kesimida muhimlik darajasi

№	Sinflar Belgilar	Tomato Leaf Mold	Tomato Bact erial Spot	Tomato Target Spot	Tomato Septor ia Leaf Spot	Tomato Healthy
1	Mean_R	0.37	-	0.17	0.41	-
2	Mean_B	0.17	-	0.17	0.19	-
3	Std_R	0.20	0.60	-	-	0.92
4	Std_G	-	0.21	0.51	0.21	-
5	Std_B	-	-	-	-	-
6	Kurt_R	-	-	-	-	0.23
7	Skew_B	0.40	0.21	-	-	-
8	GLI	0.19	0.60	0.19	-	-
9	Red_Green_Ratio	0.21	-	0.19	-	0.69
10	Green_Blue_Ratio	-	-	0.32	-	-
11	GLCM_Contrast1	-	-	-	-	0.69
12	ExR_Mean	0.61	0.62	0.34	0.41	-
13	ExR_Std	0.61	0.42	0.51	0.60	0.69
14	ExG_Mean	0.21	0.21	-	0.77	0.23
15	ExG_Std	0.42	0.81	0.19	0.77	0.47

4-jadval.

Belgilarning $\tilde{\omega}$ sinflar kesimida muhimlik darajasi(davomi)

№	Sinflar Belgilar	Tomato_ Yellow_Leaf_ Curl_Virus	Tomato_Two- spotted_spider_ mite	Tomato_Early_ Blight	Tomato_ Mosaic Virus	Tomato_Late_ blight
1	Mean_R	0.61	0.36	0.18	-	0.35
2	Mean_B	0.20	-	-	-	-
3	Std_R	-	-	0.34	-	0.68
4	Std_G	-	-	0.14	0.48	-
5	Std_B	0.20	0.17	0.16	-	-
6	Kurt_R	-	-	-	0.72	-
7	Skew_B	-	0.35	-	-	-
8	GLI	0.59	0.16	0.16	0.72	-
9	Red_Green_Ratio	0.79	0.67	0.31	-	0.19
10	Green_Blue_Ratio	0.20	0.17	-	0.24	-
11	GLCM_Contrast1	-	-	-	-	-
12	ExR_Mean	0.41	0.49	0.35	-	0.68
13	ExR_Std	-	0.19	0.35	-	0.37
14	ExG_Mean	0.21	0.19	0.35	0.96	0.18
15	ExG_Std	0.21	0.17	0.51	0.96	0.53

5-jadval.

Obyektlarning etalonga muvofiqligini baholash uchun chegaraviy qiymatlarni aniqlash

№	Sinflar	ε -qiymatlar (har bir sinf uchun)	Yagona ε qiymat
1	Tomato___Bacterial_spot	0.05	0.05
2	Tomato___Early_blight	0.05	
3	Tomato___Late_blight	0.06	
4	Tomato___Leaf_Mold	0.06	
5	Tomato___Septoria_leaf_spot	0.07	
6	Tomato___Spider_mites Two-spotted_spider_mite	0.06	
7	Tomato___Target_Spot	0.07	
8	Tomato___Tomato_Yellow_Leaf_Curl_Virus	0.04	
9	Tomato___Tomato_mosaic_virus	0.04	
10	Tomato___healthy	0.04	

XULOSA

“Tasvir ko‘rinishida berilgan o‘simlik barglarining kasalliklarini tashxislashda informativ belgilarni tanlash algoritmlari” mavzusidagi dissertatsiya ishi asosida amalga oshirilgan tadqiqotlar doirasida quyidagicha xulosalar qilindi:

1. Tadqiqot mobaynida dastlab, tasvirlarga raqamli ishlov berishning usul hamda algoritmlari tahlil qilindi. Jumladan, barg tasvirlaridagi patologik holatlarning namoyon bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadigan algoritmlar tanlab olindi. Chunki tasvirlarga dastlabki ishlov berish jarayoni tasniflash masalalarida katta ahamiyat kasb etadi. Yaxshi ishlov berilgan tasvirlardan xususiyatlarni ajratib olish jarayoni barqarorlashadi hamda foydalanilayotgan modelning aniqlik ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

2. Tadqiqot natijasida o‘simlik bargi tasvirlaridan obyektning turli toifali xususiyatlarini ajratishga mo‘ljallangan algoritmlar asosida maxsus yondashuv ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv tasvirlarga dastlabki ishlov berish, tasvirlarning rang, tekstura, shakl hamda statistik xususiyatlarini aniqlovchi algoritmlar ansamblini qo‘llash orqali xususiyatlarni sonli ko‘rinishda olish imkonini beradi. Mazkur jarayon o‘qitish vaqtining ancha kamayishiga sabab bo‘ladi. Xususiyatlarni ajratish natijasida hosil qilingan o‘quv tanlanma keyingi tasniflash bosqichlarida aniqlikni oshirishga xizmat qiladi.

3. Obyektni tavsiflovchi xususiyatlar to‘plamidan eng informativlarini aniqlash algoritmlari takomillashtirildi. Taklif etilgan algoritmlar statistik tahlil, kombinatsion baholash va optimallashtirish usullarini birlashtirib, belgilar sonini qisqartiradi va shu orqali modelning hisoblash murakkabligini kamaytiradi. Bu esa real vaqtda ishlovchi tizimlar uchun sezilarli samaradorlik beradi.

4. Sinflar orasidagi farqlanish darajasini baholash uchun belgilarni tayanch qism to‘plamlar bilan bog‘liqligini o‘lchovchi maxsus mezon taklif qilindi. Ushbu mezon belgining ma’lum bir sinf kombinatsiyalari doirasida qanchalik barqaror va farqlovchi ekanligini aniqlaydi. Natijada, tanlangan belgilar tasniflash jarayonida yuqori diskriminativ qobiliyatga ega bo‘lishi ta’minlanadi.

5. O‘quv tanlanmadagi obyektlarning etalonga qanchalik mos kelishini aniqlash uchun chegaraviy qiymatga asoslangan identifikatsiya yondashuvi ishlab chiqildi. Ushbu metod obyektning tanlangan xususiyatlari bo‘yicha etalon namunaga yaqinlik darajasini miqdoriy baholash imkonini beradi.

6. Tadqiqot paytida bajarilgan barcha ishlar barg tasvirlaridan olingan o‘quv tanlanmadagi qiymatlarni aniq hisoblashga, bu orqali informativ belgilarni samarali tanlashga, tanlangan informativ belgilardan qism to‘plamlar yaratish orqali xususiyatlar yetarli bo‘lmagan sharoitida ham tanib olish imkonini berishga xizmat qiladigan bosqichlar ketma-ketligi samarali tashkil qilingan. Amaliyotda foydalanish uchun olingan usul va algoritmlar ham yuqoridagi bosqichlardan olingan o‘quv tanlanmalarda barqaror ishlashga zamin yaratildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.13/05.05.2023.T.07.03 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**ТАШКЕНТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНФОРМАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ ИМЕНИ МУХАММАДА АЛ-ХОРАЗМИЙ**

МУРАЕВА ХОДИСАХОН МУСИНЖОН КЫЗЫ

**АЛГОРИТМЫ ВЫБОРА ИНФОРМАТИВНЫХ ПРИЗНАКОВ ДЛЯ
ДИАГНОСТИКИ ЗАБОЛЕВАНИЙ ЛИСТЬЕВ РАСТЕНИЙ,
ПРЕДСТАВЛЕННЫХ В ВИДЕ ИЗОБРАЖЕНИЙ**

05.01.03 – Теоретические основы информатики

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.3.PhD/T5804

Диссертация выполнена в Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.tuit.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Худайбердиев Мирзаакбар Хаккулмирзаевич
доктор технических наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Примова Холида Анорбоевна
доктор технических наук, профессор

Темербекова Барно Маратовна
доктор технических наук, доцент

Ведущая организация:

Андижанский государственный университет имени Захириддина Мухаммада Бабура

Защита диссертации состоится « 9 » сентября 2026 г. в 16⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc.09/2025.27.12.T.01.03 при Ташкентском университете информационных технологий. (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 207-59-42; e-mail: ilmiy_kengash@tuit.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий (регистрационный № 446). (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-15.)

Автореферат диссертации разослан « 28 » августа 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 25 от « 28 » августа 2026 г.).



М.М.Камилов

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, академик АН РУз

Н.А.Эгамбердиев

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по техническим наукам

Н.О.Рахимов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современном мире одной из актуальных задач является мониторинг продовольственного обеспечения посредством цифровизации всех отраслей народного хозяйства и своевременное выявление факторов, наносящих ущерб. Стремительный рост численности населения, изменение климата, деградация почв и ограниченность водных ресурсов обуславливают необходимость увеличения объемов сельскохозяйственного производства. Однако различные заболевания растений существенно препятствуют достижению данной цели. Согласно международным исследованиям, ежегодно заболевания растений в среднем снижают урожайность сельскохозяйственных культур в мире на 20–40 %. В отдельных случаях эти потери могут достигать 50 % и более. Например, по данным Продовольственной и сельскохозяйственной организации Объединённых Наций (ФАО), заболевания и вредители растений ежегодно наносят значительный экономический ущерб мировому сельскому хозяйству. В этих условиях научные исследования, направленные на раннее выявление и предупреждение заболеваний растений, имеют важное значение для обеспечения устойчивости сельского хозяйства, повышения урожайности, укрепления продовольственной безопасности и внедрения полученных результатов в практику. В связи с этим особую значимость приобретает использование теоретических и практических подходов к разработке комплекса специальных алгоритмов выбора информативных признаков при диагностике заболеваний растений, основанных на технологиях цифровой обработки изображений и методах предварительной обработки данных, позволяющих повысить качество изображений, выделить признаки, характеризующие объект, и выбрать из них наиболее оптимальные.

Во всем мире проводятся научно-исследовательские работы, направленные на решение вышеуказанных задач посредством цифровых технологий и интеллектуального анализа данных. Путём преобразования изображений листьев в цифровую форму можно преобразовать их цветовые, пространственные и текстурные характеристики в точные числовые показатели. На основе этих показателей с использованием алгоритмов машинного и глубокого обучения признаки заболеваний автоматически выделяются, что позволяет осуществлять диагностику с высокой точностью. Поскольку изменения цвета листьев являются одним из ранних признаков многих заболеваний, интеллектуальный анализ цветовых характеристик рассматривается как один из наиболее перспективных подходов к раннему выявлению заболеваний растений. В связи с этим особое внимание уделяется разработке алгоритмов интеллектуального выявления заболеваний растений на основе цветовых характеристик изображений листьев.

В Республике Узбекистан также реализуется широкий комплекс мер, направленных на внедрение современных информационно-коммуникационных технологий в сельское хозяйство, разработку эффективных алгоритмов и методов интеллектуального анализа данных, а

также цифровизацию процессов диагностики, в результате чего достигнуты определённые результаты. Кроме того, в рамках Портала открытых данных Республики Узбекистан была запущена цифровая платформа данных (data.egov.uz), предоставляющая возможность получения наборов данных государственных органов и других информационных ресурсов для использования программного обеспечения на основе искусственного интеллекта. Данная платформа может способствовать развитию ряда отраслей страны. Открытый доступ к данным создает возможности для проведения научных исследований и разработки инновационных проектов.

